



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА ПЕДАГОГ- ТАРБИЯЧИЛАРНИ КАСБИЙ-ШАХСИЙ ТАЙЙОРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISHNING ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

*Boymurodova G.T.*

*p.f.d.(DSc) ., BuxDPI dotsenti*

**Tayanch soʻzlar:** pedagog, kasbiy-shaxsiy tayyorgarlik, didaktika, kadr, axborot texnologiya, metod, tizim, sistema, jarayon, texnologik holat.

**Ключевые слова:** педагог, профессиональная подготовка, дидактика, кадры, информационные технологии, метод, система, система, процесс, технологическое состояние

**Key words:** pedagog, professional and personal training, didactics, personnel, information technology, method, system, system, process, technological state.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim islohotlari jadallashib borayotgan bir vaqtda maktabgacha taʼlimda tarbiyalanuvchi shaxsini shakllantirish, ularga mavjud ilmiy bilimlarning boshlangʻich asoslarini yetkazishda muhim bosqichdir.

Bugungi kunda maktabgacha taʼlim sohasidagi strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning dastlabki sharti–maktabgacha taʼlim tizimiga malakali, mahoratli, zamonaviy pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash, ularni kasbiy malakalarini takomillashtirishdan iborat ekanligiga alohida eʼtibor qaratish zarurdir.

Vaholanki, maktabgacha taʼlim tizimiga dastlabgi taʼlimning muhim bosqichlari bolaning dunyoqarashi, did, salohiyati shakllanadigan bu tizimda, eng tajribali, zamonaviy kompetentlikka ega boʻlgan pedagog-tarbiyachilarni tayyorlash zamon talablaridan biridir.

Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi har bir mutaxassisning umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kasbiy-shaxsiy mahorati, oʻz kasbiga boʻlgan munosabati, qiziqishini shakllantirish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, uddabronlik, ishbilarmonlik kabi fazilatlarini tarkib toptirishdan iboratdir.

Maʼlumki, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan bilimlarning asosiy poydevori maktabgacha taʼlimda qoʻyiladi. Shaxs ongi va dunyoqarashining



rivojlanishiga asos bo'ladigan bilimlar ham shu bosqichda beriladi. SHunga ko'ra, maktabgacha ta'limda pedagog-tarbiyachilarning ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan yetuk bo'lishlari ular ta'lim-tarbiya berayotgan o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida bolalar bog'chalarida ishlash uchun tayyorlanayotgan pedagogik-tarbiyachilar faoliyatiga qobiliyatli, ijodkor, umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni, metodik bilim ko'nikmalarni egallagan, zamonaviy bilimlardan xabardor, ma'naviy barkamol, O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida ravnaq topishiga ishongan, vatanparvarlik, o'z kasbini va bolani sevgan, insonparvar, talabchan, adolatli, pedagogik odobli, tarbiyalanuvchilarning barkamol shaxs bo'lib yetishishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan asosiy omillarni aniqlash, pedagogik kadrlar tayyorlashda to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar keltirib o'tilgan:

- ▶ maktabgacha yoshdagi bolalarning to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonining yetarli emasligi;
- ▶ maktabgacha ta'lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi;
- ▶ maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ular malakasining pastligi
- ▶ ota-onalarning bola shaxsining shakllanishida maktabgacha ta'limning ijobiy jihatlari va foydasi haqida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi;
- ▶ zamonaviy o'quv-metodik materiallar va ko'rgazmali qurollarning yetishmasligi;
- ▶ alohida ehtiyojli bolalar uchun mavjud maktabgacha ta'lim tashkilotlarining texnik jihozlanishi va uslubiy ta'minoti darajasining pastligi;
- ▶ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish sifati va tibbiyot xodimlarining malakasi zamon talablariga to'liq javob bermasligi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va maqsadlarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirishning innovatsion usullarini ishlab chiqish, bolalarni sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish masalalariga e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish,





Ta'lim jarayonini borishi tarbiyalanuvchilarning belgilangan maqsad yo'lida harakat qilishlarini uzluksiz nazorat qilishni ko'zda tutadi. Mazkur jarayon texnologik ta'lim tizimining yuqori darajali imkoniyatlarini ochib beradi.

Pedagogik tizim sub'ektlari hisoblangan tarbiyachi-pedagog, tarbiyachi-pedagog shaxsi, ta'lim maqsadi, mazmuni, didaktik jarayonlar hamda tashkiliy shakllari yaxlit bir tizimni ifodalaydi.

Ta'limning globallashuvi, shuningdek, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Pedagogika oliy o'quv yurtlarida ham o'quv-tarbiya ishlarini yangicha yondashuv asosida tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarning kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish hamda kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Pedagogika oliy o'quv yurtlari faoliyatini nazariy, amaliy jihatdan o'rganish, ushbu jarayonda amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar mavjudligini ko'rsatmoqda. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish, ularda mustaqil ravishda pedagogik faoliyatni tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni talab qilmoqda.

Pedagogikaga oid atamalar tizimida "kasbiy-axloqiy malaka" tushunchasi mavjud emas, u kasbiy ahloqning yuqori darajasi "kasbiy madaniyat" yoki "kasbiy yetuklik" zahirida ifoda etiladi. Kasbiy axloq muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotda shuningdek, pedagog-tarbiyachi shaxsida namoyon bo'lishi zarur bo'lgan sifatlar sirasida quyidagilar taqdim etilgan:

- Insonparvarlik;
- Adolatparvarlik;
- Bolalarga nisbatan hurmat va muhabbat;
- Mutaxassislik fani va pedagogik faoliyatga nisbatan muhabbat;
- Qat'iyatlilik;
- Voqelik mohiyatini to'g'ri baholay olish;
- Ijodiy qobiliyatga egalik;
- Ovoz, talaffuz va mimikadan oqilona foydalana olish;
- Moddiy ehtiyojlarni qondira olish layoqatiga egalik;
- Fikran o'zini bolaning o'rniga qo'ya olish layoqatiga egalik.

Pedagogik oliy o'quv yurtlarida bo'lajak maktabgacha ta'limda pedagog-tarbiyachilarining kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu borada muvaffaqiyatga erishish quyidagi shartlarga rioya etishni talab qiladi:



- oliy o`quv yurti faoliyatini tashkil etishdan ko`zlangan asosiy maqsad negizida xususiy maqsadlarning tug`ri belgilanishi;
- o`quv-tarbiya jarayonining birligi va o`zaro aloqadorligiga erishish;
- ob`ektiv va sub`ektiv shart-sharoitlarning mavjudligini inobatga olish;
- bo`lajak maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilari shaxsida namoyon bo`lishi zarur sanalagan kasbiy-shaxsiy sifatlar ko`lami va ularning mohiyatini aniqlash;
- bo`lajak maktabgacha ta`lim pedagog-tarbiyachilarining professio-grammasini yaratish;
- tayanch tushunchalarni nazariy jihatdan sharhlash;
- bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarini kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirishning texnologik tizimini yaratish.

Bo`lajak pedagog-tarbiyachilarining kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish kelgusida ular tomonidan tashkil etiluvchi pedagogik samaradorlikni kafolotlovchi jarayon sanalib, mazkur jarayonda quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilar kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining mavjud holatini o`rganish, tahlil etish;
2. Maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta`minlashning texnologik asoslarini ishlab chiqish;
3. Maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilarini kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta`minlashning texnologik tizimini yaratish zarur.

O`qituvchi kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta`minlashda amal qilinishi zarur bo`lgan didaktik qoidalar:

1. Yangi texnologik tizim mazmuni asosini kasbiy faoliyat tajribalarini o`zlashtirish tashkil qilish zarur, ya`ni bo`lg`usi pedagogni tayyorlashning asosiy maqsadi unda kasbiy-shaxsiy malakalarni shakllantirish bo`lishi lozim.
2. Ta`lim jarayoni mantiqan sub`ektiv amaliy tajribadan nazariy umumlashmaga tomon rivojlantirishga qaratilishi zarur. An`anaviy ta`limda esa, akischa nazariyadan amaliyotga o`tiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog-tarbiyachilar shaxsini kasbiy, ma`naviy, texnologik jihatdan tayyorlashga bag`ishlangan nazariy manbalar, tadqiqot ishlarining tahlili maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilarini tayyorlash amaliyoti, o`qituvchilarning ish faoliyatlarini har tomonlama o`rganish natijalari shuni ko`rsatdiki, pedagogika oliy o`quv yurtlarida bo`lajak maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilarini kasbiy-shaxsiy tayyorlashning texnologik tizimini ishlab chiqish va bu tizimni nazariy jihatdan asoslash metodik fanlarni o`qitish oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.



Ushbu vazifalarni amalga oshirishda bo`lajak maktabgacha ta`limda pedagog-tarbiyachilarini kasbiy-shaxsiy tayyorlashda o`ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda belgilab berilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu pedagogik-psixologik xususiyatlar yosh o`qituvchiga ta`lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish, o`quv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish, o`quvchini mujassam tarzda aqliy- intellektual, jismoniy hamda ma`naviy rivojlantirishga xizmat qiladigan o`quv topshiriqlarini tanlash imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o`quv dasturi T: 2022. -81b.
2. F.Qodirova, Sh.Toshpo`latova, M.A`zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma`naviyat". 2019.-685 b.
3. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T:. 2013.- 288 b.
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T:. 2013. -172b.
5. N.T.Tosheva "Maktabgacha ta`lim tarbiyani tashkil etish". Darslik. -Buxoro: "Kamolot" , 2022. - 396 b.
6. D.Q,Asqarova. Bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash metodikasi. O`quv qo`llanma. "Navro`z nashriyoti" Toshkent-2020.-136b.
7. I.V. Grosheva, Ye.F. Say, S.S. Mirjalolova, N.I. Medvedeva "Ilm yo`li" vareativ dastur. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim Vazirligi.T.:2020.-424b
8. G.T.Boymurodova. Maktabgacha pedagogik tadqiqotlarni modellashtirish Darslik.-Toshkent , 2022 – 182b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tarbiyachi- pedagoglarning kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini tizimlilik asosida takomillashtirish masalasi zamonaviy talablar asosida yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta`lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi -pedagoglarning ta`lim jarayonini tashkil etishning pedagogik asoslari va didaktik tamoyillari asosida tashkil etish nazariy-amaliy jihatdan yoritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данном государстве освещен вопрос совершенствования профессиональной и личностной подготовки дошкольных воспитателей-педагогов на основной систематизации с учетом современных требований. Кроме того, с теоретической и практической точки зрения объяснена организация образовательного процесса воспитателей, работающих и дошкольных образовательных организаций, на основе педагогических основ и дидактических принципов.

#### SUMMARY

In this article, the issue of improving the professional and personal training of pre-school educators-pedagogues on the basis of systematization is highlighted based on modern requirements. In addition, the organization of the educational process of educators working in preschool education organizations on the basis of the pedagogical foundations and didactic principles is explained from a theoretical and practical point of view.